



History and present of diplomacy of Uzbek state

Khadicha SAIDULLAYEVA¹

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2023
Received in revised form
15 February 2023
Accepted 15 March 2023
Available online
25 April 2023

Keywords:

diplomacy,
foreign policy,
international cooperation,
ambassador,
regional cooperation,
international organization.

ABSTRACT

In this article, the diplomatic policy of the historically powerful countries on the territory of Uzbekistan, their specific features, as well as the formation of the diplomacy of the independent Republic of Uzbekistan and its current prospects are highlighted.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2-pp6-12>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbek davlatchiligi diplomatiyasining tarixi va buguni

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

diplomatiya,
tashqi siyosat,
xalqaro hamkorlik,
elchi, mintaqaviy hamkorlik,
xalqaro tashkilot.

Ushbu maqolada O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan tarixiy qudratli davlatlarda olib borilgan diplomatik siyosatlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritilishi bilan bir qatorda mustaqil O'zbekiston Respublikasi diplomatiyasining shakllanishi va hozirgi kundagi istiqbollari bayon etilgan.

История и современность дипломатии узбекского государства

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

дипломатия,
внешняя политика,
международное
сотрудничество,
посол,
региональное
сотрудничество,
международная
организация.

В данной статье рассматривается дипломатическая политика исторически могущественных стран на территории Узбекистана, ее особенности, а также становление дипломатии независимой Республики Узбекистан и ее перспективы в современном мире.

¹ Doctoral student, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

Diplomatiya davlat tashqi siyosatining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, u orqali mamalakatning tashqi siyosiy va iqtisodiy manfaatlari ta'minlanadi. O'zbek davlatchiligi tarixining uzoq yillik o'tmishi davomida O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan davlatlarning asosiy e'tibor qaratgan sohasi diplomatiya bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Chunki mamlakatning taraqqiyoti va xavfsizligi ko'p jihatdan faol tashqi siyosatga bog'liq bo'lgan. Davlatlarning diplomatik tashqi aloqalardagi munosabatlarining o'zaro tengligi prinsipi ko'p jihatdan uning moddiy va tabiiy imkoniyatlariga, georafik joylashuviga, shuningdek, mamlakatning harbiy va moddiy qudratiga qarab belgilangan.

Diplomatik siyosat har bir davrning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, xalqaro huquqiy normalar o'rnatilmagan zamonlarda davlatning diplomatik taraqqiyoti uzoqni ko'ra oladigan, kuchli siyosatchi rahbarlarning mahoratiga bog'liq bo'lgan.

Jumladan, o'rta asrlar diplomatiyasiga oid adabiyotlarni tadqiq qilish orqali Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburlarning jahon diplomatiyasi tarixida tutgan o'rni beqiyos ekanligini, ularning bu sohada o'ziga xos ustuvor yo'nalishlari mavjud bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, G. Hidoyatovning «Основы дипломатии» asarida A. Temur usmonlilarni mag'lub qilgach, bu davlatni o'z tasarrufiga qo'shib olmadi va uni nazorat qilishni o'g'li Mironshohga topshirib, Mironshohning o'g'lini Boyazidning qiziga uylantirib qo'ydi [1]. Bu ishi bilan o'zining ashaddiy dushmanining qudasiga aylandi. Ammo bundan o'ziga xos siyosiy maqsad ko'zlangan edi. Bu siyosatda Osiyo mentalitetiga xos bo'lgan an'analarni va islom sivilizatsiyasining ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

A. Temur diplomatiyasining o'ziga xos xususiyatlari N. Shomiyning "Zafarnoma" asarida ham talqin qilingan. Jumladan, asarda A. Temurning Xorazm hukmdorlari bilan aloqalariga to'xtalib, shunday bir voqeani keltiradi: Yusuf So'fi bilan nizolar keskinlashayotgan bir vaqtda Termiz tomondan Sohibqironga yangi pishgan qovun keltirishadi. U "Y. So'fiy garchi o'rinsiz muxolifatga borgan bo'lsa ham, ammo oramizda qarindoshlik bor uchun birinchi qovunni usiz yeyish loyiq emas", deya qovunning yarmini kestirib, oltin tovoqqa solib, Y. So'fiyga jo'natadi [2]. Yusuf So'fiy esa qovunni suvga tashlattirib, oltin tovoqni darvozabonlarga taqdim qiladi. O'z davrining qudratli davlat sohibi A. Temur davriga oid birlamchi manbalardan sanalmish Rui Gonsales de Klavixoning "Samarqandga-Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" asarida ham Sohibqironning diplomatik siyosatiga doir ayrim muhim jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Ispan elchisi Klavixo o'z kundaligida Bog'i Chinorda bo'lgan bir ziyofat haqida hikoya qilar ekan, u bu bazmga o'z safdoshlari bilan tilmochni kutganligi vajidan kech qolganligini yozadi va voqeani quyidagicha tasvirlaydi: "Elchilar bazmga kelganlarida podshoh ovqatlanib bo'lgan edi. U: "Bundan buyon elchilarni taklif etganda, ular tilmochni kutib o'tirmasdan darhol yetib kelmaklari lozim... Chunki elchilar mening xonadonimni va a'yonlarimni ko'rib, har jihatdan yayrasinlar degan niyatda bu sayilni uyushtirganman" – dedi. Buning ustiga xonadonini boshqaradigan amirlarning kelmaganliklari uchun mirzolardan qattiq xafa bo'ldi" [3].

Yuqoridagi voqea tavsilotlaridan shuni anglash mumkinki, Amir Temur ittifoqdosh davlatlarining elchilariga nisbatan yuksak ehtiromda bo'lib, ularning sharafiga katta bazm-u sayllar uyushtirgan.

Bundan tashqari A. Temur o'z diplomatiyasida baynalminallik hamda tolerantlik g'oyalari ham rioya qilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, gurjilar o'z shaharlari va ahli avlodlarini Amir Sohibqironning g'azab o'tidan saqlash maqsadida, elchi jo'natib:

“Tangrining rahmati mo‘minlar uchun bo‘lganidek, kofirlar va mushriklar uchun hamdir... Agar jizya to‘lab tursak va omonda ekanligimizni bilsak, sizning diningiz o‘zingiz uchun, mening dinim o‘zim uchundur...” mazmunida noma yo‘llashadi.

Shundan so‘ng A. Temur ularni avf etib, hadyalarini qabul qiladi: “Bundan keyin qullik maqomiga doxil bo‘lib, yaxshi bandalik vazifasi va maqbul xizmatlarni qilishga kirishsinlar... musulmonlarni o‘z zaminlarida aziz tutsunlar... bordi-keldi eshigini ochsinlar” – deya elchilarga sarpolar kiygizib jo‘natadi [4].

O‘rta asrlar diplomatiya sohasining rivojlanishida boburiylarning ham xizmati katta desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo o‘rtasida qadimdan davom etib kelayotgan aloqalar Hindistonda temuriylar sulolasining davomchilari boburiylar hukmronligi davrida o‘z cho‘qqisiga yetdi.

Boburiylar Hindistonda o‘z hukmronliklarini o‘rnatgach tashqi dunyo ularni Temurning vorislari sifatida tan olishini lozim deb topdilar. Bu jahon hamjamiyatida munosib o‘rin topmoq uchun o‘ziga xos diplomatik siyosiy texnologiya bo‘lgan deya olamiz. Masalan, Eron shohi Abbos Hindiston hukmdori Jahongirshohga yo‘llagan rasmiy maktubida “ushbuni Ko‘ragon taxtiga o‘tirgan zotga va Temur tojining merosxo‘riga yo‘llayman” [5], deb yozadi va yana bir joyda Hindiston elchisi Xon A‘lamga imperatorga sovg‘a tariqasida Isfaxondan Temur, uning o‘g‘illari va lashkarboshilarining To‘xtamishxon bilan olib borayotgan yangi tasvirlangan noyob san‘at asarini olib ketishga ruxsat beradi [6].

Ko‘rinib turibdiki, boburiylar tashqi siyosatda qo‘shni davlatlari bilan aloqalarni yaxshilashga jiddiy e‘tibor qaratganlar. Boburiylar saltanatining XVI-XVII asrlardagi musulmon davlatlari bilan o‘zaro aloqalarida islom dinining birlashtiruvchi rolini ko‘rishimiz mumkin. Manbalar bir qancha hind musulmonlarining Buxoro madrasalarida tahsil olganliklarini tasdiqlaydi [7].

Abul Fazl ta‘biri bilan aytganda Hindistonda “Ko‘ragon oilasining faxri”, “Temur urug‘ining chirig‘i” Akbarshoh saltanat egasi bo‘lganda, Movarounnahrda shayboniylar sulolasining namoyondasi Abdulla II hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi. Bu ikki mamalakat o‘rtasida juda ko‘plab diplomatik almashinuvlar bo‘lib o‘tdi. Ushbu aloqalarda Akbarshoh Abdullaxonning do‘stlik aloqalarini o‘rnatish borasidagi takliflariga rozilik berish bilan bir qatorda o‘z pozitsiyasini saqlab qolgan. Masalan, Abdullaxonning navbatdagi Hindistonga jo‘natilgan elchisi Mir Abdurahmon Xo‘ja Sadr 1577-yilda yetib keladi. Elchi Akbarshohga Abdullaxonning Turkiston bilan Hindiston o‘rtasida Eronni bo‘lib olish taklifini yetkazadi. Akbarshoh Mirza Fulod boshchiligidagi o‘z elchilarini Abdullaxon saroyiga yuborib, bu orqali, Eronning musulmon davlati ekanligini eslatib, bu davlat yerlarini bo‘lib olishga rozi emasligini anglatadi. O‘z navbatida tobora kuchayib borayotgan Abdullaxon davlatining Badaxshonga tug‘dirayotgan xavfini Akbarshoh harbiy kuch bilan emas, diplomatik yo‘l bilan hal qilishga uringanligi manbalarda ma‘lum.

Islom sivilizatsiyasi va Osiyo xalqalarining mentaliteti uyg‘unlashgan holda diplomatik siyosat olib borishning o‘ziga xos an‘analari o‘zbek davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa ega bo‘lgan xonliklar davrida ham davom etdi. Xonliklar davriga oid diplomatiya sohasini o‘rganilmagan qirralari hali ko‘p, tadqiq etilgan manbalar shuni ko‘rsatadiki, o‘z vaqtida ayrim hukmdorlar tashqi aloqalarda davlatchilik an‘analariga sodiq holda siyosat yuritib, o‘z mamlakatining mustaqilligini saqlab qolish uchun so‘nggi imkoniyati qolguncha kurashgan. Jumladan, Ost-Indiya kompaniyasi elchisi Jeyms Abbotning Xivaga missiyasi haqida Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohi” asarida

shunday deyiladi: “Hindistondan Habbot (Abbot) sohib otligʻ inglís Angliston podshohi tarafidan elchi boʻlib keldi. Nomasining mazmuni bu erdikim, koʻp zamondan beri Rossiya ahli sizlar tarafga harakat etib, viloyatlaringizni olmoqning fikridadir. Maqsadi (Rossiyaning) budurkim, tamomi Movarounnahrni va Xorazm va Xurosonni olib, Siyiston ustidan biz tarafga (Hindistonga) oʻtgay. Rossiya podshohi bir ulugʻ podshohdirkim, aning lashkari va dastgohi ortiqdur. Sizlarda aning lashkariga muqobil boʻla olgulik quvvat yoʻqdir. Kamoli gʻolib budirkim, yana ellik yildan soʻng (Rossiya) sizlarning viloyatlaringizni olur. Agar xohlasangizkim, viloyatingiz davom qoʻlingizda turib, hech kimsa anga moʻtaarrez boʻla olmagʻay, viloyatingizni xatlatib bizga (Angliyaga) bering. Xorazm inglís yurti boʻldi degan soʻz ishtihor topsun, andin soʻng bu xavfdin forigʻ boʻlursiz... Noma tamom, vassalom” [8] Xiva bu davrdagi xoni Olloqulixon shunday qatʻiy javob qiladi: “(Rossiya) alhol avval bizning ustimizga yurish etgan emas, ellik yilgacha kim bor-u kim yoʻq. Biz ellik yilda kelur ishning andishasi bila bu kun yurtimizni qoʻldan birovga bermasmiz. Bizdan soʻnggilar ne ish etmoqni xohlar-etsunlar” [9].

Solnomalarda Buxoro amirlarining ham tashqi aloqalarda mustaqil, manfaatli harakat qilganliklari haqida qimmatli maʼlumotlar uchraydi. Masalan, 1838-yilda inglíz elchisi polkovnik Stoddart Buxoroga kelishidan asosiy maqsad Buxoro lashkarini yangi qurol, tezotar toʻplar bilan qurollantirish, harbiy muallimlar yuborish va Rossiyaning xufya harakatlaridan Buxoro hokimlarini xabardor etishgina boʻlmay, Afgʻonistonga nisbatan amalga oshirilgan tajovuzdan soʻng bu yerda ham oʻz manfaatini mustahkamlash boʻlgan [10]. Amir Nasrullo uning harakatlaridan niyatlarini tushunib, Stoddartni qamoqqa olgan. Manbalardan Stoddartni qutqarish va uning rejalarini davom ettirish uchun Konoli Xiva va Qoʻqonga kelib, xivaliklarni Buxoroga qarshi urushga otlantirish uchun har tomonlama harakat qilgani maʼlum.

Oʻzbek davlatchiligi tarixida tashqi aloqalarga oid boʻlgan diplomatik hamkorliklar, yozishmalar, hukmdorlarning oʻz davrida olib borgan faol tashqi siyosatlari aks etgan qimmatli maʼlumotlar bilan bir qatorda bu sohaning oʻrganilmagan, ochilmagan qirralari oʻz tadqiqotchilarini kutmoqda.

Davlatchiligimiz tarixining mustamlakachilik bosqichi-sovet davrida sovet-kommunistik mafkurasi xalqimizni turli millatlar bilan oʻzaro aloqalar olib borishiga, madaniyatlar almashinuvi orqali xalqaro siyosiy maydonda oʻz oʻrnini topishga imkon bermagan. Oʻzbekiston SSRning 1978-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasida [11] boshqa mamlakatlar xalqlari bilan doʻstlik va hamkorlikning rivojlanishida va jahonda tinchlikni mustahkamlashda yordamlashishi kerakligi belgilab qoʻyilgan. Ammo xalqaro aloqalar faqat Moskvaning ruxsati va qatʻiy nazorati ostida boʻlgan. Shunga qaramay Osiyo xalqlarining madaniy aloqalarida, jumladan, xalqaro koʻrgazmalar tashkil etishda, teatr va kino sohasini targʻib qilishda, sanʼat va adabiyot haftaliklarini joriy qilishda Oʻzbekiston muhim rol oʻynagan desak mubolagʻa boʻlmaydi. Bunda “Chet mamlakatlar bilan doʻstlik va madaniy aloqalar Oʻzbekiston jamiyati” deb nomlangan ommaviy-koʻngilli jamoat tashkilotining faoliyatiga doir bir qancha maʼlumotlar fikrimizning isbotidir. Mazkur jamiyatning dunyo mamlakatlari bilan 12 ta hamkorlik tashkiloti faoliyat koʻrsatib, unda Osiyo mintaqasiga kiruvchi 10 dan ortiq boʻlimlar mavjud boʻlgan [12].

Oʻzining qadimiy davlatchilik anʼanalariga ega Oʻzbekiston tom maʼnoda zamonaviy diplomatiyani oʻzida mujassamlashtirgan faol tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar tizimiga 1990-yillardan, aniqrogʻi mustaqillikka erishgach kirib keldi.

Mustaqillik davlatchilik taraqqiyoti uchun barcha jabhalarda yangi imkoniyat yo'llarini ochib berish bilan bir qatorda, globallashuv jarayoni avj olgan murakkab bir vaziyatda jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topishdek ma'suliyatli vazifani ham yukladi. O'zbekiston bu borada ham jahonning rivojlangan davlatlari tajribasiga tayangan holda milliy mentalitet va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, o'z yo'lini belgilab oldi.

O'zbekistonning tashqi siyosat borasidagi faolligi asosini davlat milliy manfaatlarining ustuvorligi, xalqaro huquq mezonlari, tenglik va boshqa mamalakatlarining ichki ishlariga aralashmaslik, barcha bahsli masalalarni tinch yo'l bilan hal etish kabi jahon miqiyosida e'tirof etilgan tamoyillar tashkil etadi [13].

Mustaqillikning dastlabki yillarid, xalqaro munosabatlarda ko'p tomonlama va ikki tomonlama munosabatlarda mintaqaviy va global darajada faoliyat olib borayotgan BMT, MDH, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, YUNESKO kabi xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy tashkilotlar doirasida faol hamkorlikni o'rnatish, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni kengaytirish hamda Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi mamalakatlar bilan, xususan, Xitoy va Hindiston kabi buyuk davlatlar bilan teng huquqli munosabatlarni yo'lga qo'yishga urg'u berildi. O'zbekiston Respublikasining BMTga a'zo bo'lishdek tarixiy voqea 1992-yil 2-mart sanasiga to'g'ri keldi. Natijada mamalakat diplomatik ishining butun tizimi, shu jumladan, xalqaro shartnomaviy asoslarini yaratish ishlari ham BMT Ustaviga tayangan holda amalga oshirdi [14].

Shuningdek, O'zbekiston tashqi siyosatining zamon talablari darajasida tashkil etish va olib borilishiga doir huquqiy asoslar ham yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi (1992-yil 25-may) qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi (1994-yil 25-fevral) farmoni hamda shu farmon asosida chiqarilgan "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 140-sonli (1994-yil 16-mart) qarori [15] shular jumlasidandir.

Shu tariqa mamalakatimizda tashqi aloqalarning xorijiy idoralari, diplomatik vakolatxonalar-O'zbekistonning elchixonalari, xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari, missiyalari, konsulliklari shakllantirila boshlandi. MDH, EXHT Parlamentlararo ittifoq va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi uchun imkon beruvchi tashqi siyosat omillari shakllandi.

O'zbekiston diplomatiyasi xalqaro munosabatlar tizimidagi asosiy tamoyillarni doimiy o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda, milliy manfaatlar hamda xalqaro huquq prinsiplari va normalari talablariga tayangan holda o'z pozitsiyasini saqlab, faol tashqi siyosat olib bormoqda.

Ayniqsa, so'nggi yillarda respublikamizda xorijiy mamalakatlar bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash orqali ko'plab manfaatli bitimlarga erishilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilda barcha jabhalarda bo'lgani kabi, O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan munosabatlarida ham yangi davr boshlandi. Shu yilning o'zida Turkmaniston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlariga davlat tashriflari amalga oshirildi. Davlat rahbarlari o'rtasida ochiq va ishonchli siyosiy muloqotni mustahkamlash natijasida mintaqadagi qo'shnichilik munosabatlarida 2016-yilgacha mavjud bo'lgan ko'plab murakkab muammolarga yechim topildi.

2018-yilning yanvar oyida mamlakatimiz tarixida ilk bor O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilari bilan ochiq onlayn muloqot o'tkazdi. Bundan tashqari, 2017-yilda Samarqand shahrida "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, taraqqiyot va barqaror rivojlanish yo'lidagi hamkorlik" mavzusida 500 nafardan ortiq delegat ishtirok etgan anjuman bo'lib o'tdi. Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona, yaqin qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirishni asosiy tashqi siyosiy yo'nalish sifatida belgilab berdi.

Bundan tashqari nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohadagi ko'p tomonlama hamkorlik munosabatlarida faol ishtiroki, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari va yuqori saviyadagi muzokaralarda faolligi tufayli "dunyoga ochiqlik siyosati"ga sodiq qolayotgan Yangi O'zbekistonning yangi hamkorlari va xayrixohlari ko'payib bormoqda.

Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining oliy minbarida ilgari surgan global va mintaqaviy tashabbuslari dunyo hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinganligi va qo'llab-quvvatlangani fikrimizning isbotidir. Xalqaro ekspertlar ta'biri bilan aytganda, O'zbekiston xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy tuzilmalar doirasida mazmunli muzokaralar o'tkazish uchun doimiy maydoncha va platformalar taqdim etishi orqali xalqaro diplomatiyalar markaziga aylanmoqda [16].

Bu borada Yevropa Kengashi Prezidenti Sharl Mishelning mamlakatimizning tashqi aloqalardagi roli haqida quyidagi fikrlari Yevropa Ittifoqining ham O'zbekiston bilan hamkorlikni mustahkamlashga intilayotganidan dalolat beradi. "Biz O'zbekistonning Markaziy Osiyoda barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlashdagi rolini yuqori baholaymiz. O'zaro bog'liqlikni muhim deb hisoblaymiz va kelgusida muntazam ravishda uchrashib, "yashil" iqtisodiyot va barqarorlik masalalarini birgalikda muhokama qilishni rejalashtirganmiz". Shuningdek, BMT ilmiy tadqiqot instituti va Yevropa universitetining xalqaro munosabatlarni rivojlantirish dasturi direktori Xorxe Mestre: "Bugun O'zbekiston amalga oshirayotgan islohotlar tufayli izchil o'zgarib borayotganini ko'rib turibmiz. U qo'shnilar o'rtasidagi ko'priklarni tikladi, Markaziy Osiyodagi yetakchilik mavqeini mustahkamladi, mintaqaning barcha davlatlarini siyosiy va savdo-iqtisodiy jihatdan yaqinlashtirish tashabbusini ilgari surmoqda", - deya ta'kidlaydi.

Ishonamizki, O'zbekiston yer yuzidagi ko'plab mamlakatlar bilan turli sohalarda o'zaro manfaatli aloqalarni keng yo'lga qo'yib, jahon hamjamiyatida mintaqaviy va ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yib, globallashtirishning ayrim murakkab muammolari avj olgan keskin o'zgarishlar zamonida o'zining kuchli pragmatik siyosatini davom ettirish orqali xalqaro diplomatiyalar markaziga aylana oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hidoyatov G.A. Основы дипломатии. – Т.: UMED, 2002. – С. 19.
2. Nizomiddin Shomiy.Zafarnoma. – Т.: O'zbekiston, 1996. – 527-b.
3. Rui Gonsales de Klavixonig Samarqandga-Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi.
4. Mannonov B.S. Amir Temur diplomatiyasi. – Т.: O'zbekiston, 1996. – 105-b.
5. Tuzuk-i-Jahangiri, tr. A. Rogers, ND. 1978.
6. O'sha asar II. B. – 116-b.
7. McChesney R.D. Waqf in Central Asia, Princeton Univ.Press, Princeton, 1991. – P. 110.

8. Bayoniy. Shajarayi Xorazmshoh. O'zb. Res. FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, qo'lyozmalar majmuasi, tartib raqami 9596, 301-bet.
9. Bayoniy. Shajarayi Xorazmshoh. O'zb. Res. FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, qo'lyozmalar majmuasi, tartib raqami 302-bet.
10. O'zbek diplomatiyasi tarixidan. – T.: 2003-y. – 150-b.
11. Burixodjayev. Konstitutsiya O'zbekiskoy SSR 1978 g.
12. F.N. Ernazarov O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan madaniy aloqalari. Diss. – T.: 2018. – 73-b.
13. Karimov I.A. Ozod va obod vatan erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – T.: 2000. – 27-bet.
14. Sayfullayev D.B. Mustaqillik davrida O'zbekiston diplomatiyasining sakllanishi va rivojlanishi. – Tarix fan. d-ri... dis. – T., 2017. – 70–71-b.
15. O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to'plami. – 1994.
16. B. Shermuhammedov. Yangi O'zbekiston – xalqaro diplomatiya markaziga aylanmoqda. 2022-yil. Internet: <https://kun.uz/>